

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

FAN: | Elektrotexnologiyalar

MAVZU

Kirlsh. Fanning maqsad va vazifalari.
Elektromagnit maydon energiyasi va
uni boshqa turdagি energiyaga
aylantirish



Markayev Nuriddin Murodovich
E-mail: markayev88@mail.ru



“Elektrotexnologiya va elektr uskunalar
ekspulatatsiyasi” kafedrasi katta
o’qituvchisi t.t.d., (PhD).



Nuriddin M. Markayev

1-bob. Elektromagnit maydon energiyasi va uni boshqa turdagি energiyaga aylantirish.

1.1.Elektrotexnologiya o'quv fani, uning agrar soxaga energetik kadrlar tayyorlashdagi o'rni.

1.2.Elektrnomagnit maydonining energiya yetkazib beruvchi sifatidagi tavsifi

1.3.Moddiy muhitlarda elektromagnit maydon energiyasining yutilishi va boshqa turga aylanishi qonuniyatları

1.4.Elektr energiyasini boshqa turdagи energiyalarga aylantirishning umumiy qonuniyatları



Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi

I.Elektr maydonining energiya yetkazib beruvchi sifatidagi tasnifi, uning moddiy muxit tomonidan yutilishi va boshqa turlarga aylantirishning nazariy asoslari to'g'risida ko'nikma xosil qilishdan iborat

II.Elektr energiyasini issiqlik, mexanik va kimyoviy energiyalarga aylanishi, fizik mohiyati va nazariy asoslari to'g'risida ko'nikma xosil qilishdan iborat



1.1.Elektrotexnologiya o‘quv fani, uning agrar soxaga energetik kadrlar tayyorlashdagi o‘rni.

Elektrotexnologiya - elektr energiyasidan bevosita yoki dastlabki tarzda boshqa turlarga aylantirib ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanish yo‘llari, usullari va vositalarining qo‘llanilishini o‘rganadigan fan va texnika sohasidir.

Elektr termiya

Materiallarga elektr fizik va elektr kimyoviy usullar bilan ishlov berish



1.1.Elektrotexnologiya o‘quv fani, uning agrar soxaga energetik kadrlar tayyorlashdagi o‘rni (davomi).

Elektr fizik va elektr kimyoviy usullar ishlab chiqarish jarayonlarida elektr termiyadagi kabi elektr tokining nafaqat issiqlik ta’siridan, balki elektr energiyasining boshqa texnologik xususiyatlari:

mexanik, kimyoviy biologik va boshqa ta’sirlaridan foydalanishga imkon beruvchi turli xil elektr va magnit hodisalariga asoslangan.



1.1.Elektrotexnologiya o‘quv fani, uning agrar soxaga energetik kadrlar tayyorlashdagi o‘rni (davomi).


Elektr energiyasining boshqa elektr va noelektr turlarga aylantirilishi va texnologik jarayonlarda mexnat vositalariga ta’sir etish maqsadida foydalanish elektrotexnologiyaning mazmuni hisoblanadi.



1.2. Elektromagnit maydonining energiya yetkazib beruvchi sifatidagi tavsifi

Elektronika magnit maydoni - o'zaro bog'liq va bir-birini hosil qiluvchi elektr va magnit maydonlarining birligi bilan ifodalanadigan materiyaning bir ko'rinishidir.

Elektr va magnit maydonlarining o'zgarishiga elektr energiyasining magnit, magnit energiyasining elektr energiyasiga aylanishi mos keladi.



1.2.Elektronmagnit maydonining energiya yetkazib beruvchi sifatidagi tavsifi (davomi).

Elektromagnit maydoni turli xil ko‘rinishlarda mavjud (namoyon) bo‘lishi mumkin:

Elektr maydoni,

Magnit maydoni,

Elektromagnit to‘lqinlari,

Elektr toki

boshqa elektr va magnit xodisalari.




1.2.Elektromagnit maydonining energiya yetkazib beruvchi sifatidagi tavsifi (davomi).

Ushbu ko‘rinishlar esa o‘zlariga mos: elektrostatik, magnit, elektromagnit, elektrodinamik va boshqa energiya turlarini yetkazib beradi.

Elektromagnit maydon energiyasining barcha turlari moddiy muhitlarda yutilish va issiqlik, mexanik, kimyoviy yoki biologik energiyaga aylanish kabi texnologik xususiyatlarga ega.




Elektrotexnologiya



Elektromagnit maydon energiyasi

O'zaro bog'liq va bir-birini xosil qiluvchi elektr va magnit maydonlarining birligi bilan ifodalanadigan materiyaning bir ko'rinishidir. Elektromagnit maydonining tarqalishi elektr va magnit maydonlari birligidan iborat bo'lgan elektromagnit energiyasining xarakati bilan birqalikda kechadi. Elektr va magnit maydonlarining o'zgarishiga elektr energiyasining magnit, magnit energiyasining elektr energiyasiga aylanishi mos keladi

$$W = \int_V \frac{\epsilon \epsilon_0 E^2}{2} dV + \int_V \frac{\mu \mu_0 H^2}{2} dV$$




Maksvell Gipotezasi

Gipoteza: o'tkazgichdagi elektronlar elektr maydoni tomonidan harakatga keltiriladi va bu maydon o'zgaruvchan magnit maydon tomonidan bevosita hosil bo'ladi.

Induksiyalangan elektr maydoni
O'zgaruvchan magnit maydon tomonidan yaratilgan maydon



Elektromagnit induksiya hodisasining fizik ma'nosi: magnit maydonning o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan induksiyalangan elektr maydonining paydo bo'lishi



Induksiyalangan elektr maydoni va elektrostatik va statsionar elektr maydonlari o‘rtasidagi farq




O‘zgaruvchan magnit
maydon tufayli yuzaga
keladi



Induktsiyalangan
maydon kuch chiziqlari
yopiq chiziqlardir




Potensial emas



Induktviyalangan maydon – uyurma maydoni


O'zgaruvchan elektr maydoni

O'zgaruvchan elektr maydoni atrofdagi fazoda uyurmali magnit maydon hosil qiladi, uning induksiya chiziqlari o'zgaruvchan elektr maydonining chiziqlarini qoplaydi




Джеймс Клерк Максвелл

Kondensator magnit maydoni




Magnit maydon faqat o'tkazgichdagi tok bilan emas, balki kondensator plastinkalari orasidagi bo'shliqda mavjud bo'lgan o'zgaruvchan elektr maydoni bilan ham yaratiladi



Elektromagnit maydon

Uyurma elektr va magnit maydonlari bir-biri bilan “bog‘langan”, bir vaqtning o‘zida mavjud va o‘zaro bir-birini hosil qiladi



Bir-biri bilan uzviy bog‘langan uyurmali elektr va magnit maydonlar to‘plamiga elektromagnit maydon deyiladi


$$\oint \vec{E} \cdot d\vec{l} = -\frac{d\Phi}{dt}$$

Elektr yurituvchi kuch tenglamasi


$$\oint \vec{H} \cdot d\vec{l} = -\frac{dN}{dt}$$

Magnit yurituvchi kuch tenglamasi


Ushbu tenglamalarning fizik mohiyatini quyidagi ikkita qoida bilan ifodalash mumkin



O'zgaruvchan magnit maydon har doim elektr maydoni bilan birga kechadi




Elektr maydonining o'zgarishi har doim magnit maydon bilan birga kechadi



Elektromagnit maydon

Fazoda bir vaqtning o'zida elektr maydonini yaratmasdan o'zgaruvchan magnit maydonni yaratish mumkin emas



O'zgaruvchan elektr maydoni magnit maydonsiz alohida mavjud bo'lolmaydi

Elektr va magnit maydonlarini alohida ko'rib chiqish faqat nisbiy ma'noga ega

Xarakatlanmaydigan bir jinsli va izotrop muxitda o‘zgaruvchan elektr maydoni uchun to‘liq tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$\text{rot } \bar{H} = \bar{J}; \quad \bar{B} = \mu_a \bar{H}; \quad \text{rot } \bar{E} = -\partial \bar{B} / \partial \tau; \quad \text{div } \bar{D} = \rho;$$

$$\bar{j} = \gamma \bar{E} + \partial \bar{D} / \partial \tau + \rho \bar{v}; \quad \text{div } \bar{B} = 0; \quad \bar{D} = \varepsilon_a \bar{E}.$$

H - magnit maydon kuchlanganligi, A/m;

J - to‘liq tok zichligi, A/m²;

E - elektr maydon kuchlanganligi, V/m;

B - magnit induksiyasi, Tl;

τ-vaqt, s;

γ - solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi, Sm/m;

D - elektr induksiyasi, Kl/m²;

v - erkin zaryadlar xarakat tezligi, m/s;

ε_a - moddaning absolyut dielektrik singdiruvchanligi, F/m;

μ_a - moddaning absolyut magnit singdiruvchanligi, Gn/m.

Moddiy muxitlarda elektr maydonining asosiy ko‘rinishlaridan biri bu elektr tokidir. To‘la tok zichligi quyidagilardan iborat: **o‘tish toki zichligi**

$$\bar{j}_{ym} = \gamma \bar{E}$$

Elektr maydon kuchlanganligiga proporsional;

Elektr **siljish toki** zichligi,

$$\bar{j}_{cu.l} = \frac{\partial \bar{D}}{\partial \tau} = \epsilon_a \frac{\partial \bar{E}}{\partial \tau}$$

Elektr maydon kuchlanganligi ning o‘zgarish tezligiga proporsional; siyrak gazli muxitda zaryadlarni **tashish toki** zichligi

$$\bar{\mathbf{j}}_{\text{такш}} = \rho \bar{\mathbf{v}}$$

zaryadlar xarakat tezligiga proporsional.

Tashish toki elektrotermiyada, elektron vakuumli va boshqa lampalarda foydalilanildigan elektron pushkalarda kuzatiladi. $j_{o.t}$ va j_{sil} toklari zichligi asosiy qiymatlarga ega bo‘lgani uchun, ular qo‘proq o‘rganiladi

Elektr maydoni energiyasining xajmiy zichligi ($\bar{D} = \varepsilon_a \bar{E}$ ning chiziqli bog‘liqligida) quyidagicha ifodalanadi

$$W_e = \frac{1}{2} \varepsilon_a E^2$$

Magnit maydoni energiyasining xajmiy zichligi (\bar{B} va \bar{E} orasidagi chiziqli bog‘liklikda) esa quyidagicha ifodalanadi

$$W_M = \frac{1}{2} \mu_a H^2$$

Elektromagnit maydoni energiyasining xajmiy zichligi

$$W = \frac{1}{2} (\varepsilon_a E^2 + \mu_a H^2)$$

Elektromagnit to‘lqinlari ko‘rinishida uzatiladigan energiya **Maksvell qonuniga** asosan moddiy muxitlarda quyidagi tezlikda tarqaladi


$$v = 1 / (\sqrt{\varepsilon_o} \mu_o \sqrt{\varepsilon \mu}) = C / \sqrt{\varepsilon \mu}$$

Bunda ε_0 – elektr doimiysi ($8,85 \cdot 10^{-12} \text{ } \Phi/\text{m}$); μ_0 - $1,26 \cdot 10^{-6} \text{ } \text{Gn/m}$ ga teng bo‘lgan magnit doimiysi; ε - nisbiy dielektrik singdiruvchanlik; μ - moddaning nisbiy magnit singdiruvchanligi; $c = 1 / \sqrt{\varepsilon_o \mu_0}$ taqriban $3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$ ga teng bo‘lgan elektromagnit to‘lqinlarining vakumdagagi tezligi

Vaqt birligida chegaralangan A yuzali qandaydir
 v xajmga tushuvchi energiyani quyidagicha yozish mumkun bo‘ladi


$$\bar{S} = - \oint_A \bar{\Pi} d\bar{A} = - \oint_A \left[\bar{E} \bar{H} \right] d\bar{A}$$

Integral oldidagi minus belgisi jism elementar yuzasi (dA) ga, normalga qarama-qarshi energiya oqimi jism ichiga yo‘nalganligini ifodalaydi. Umuman, energiya oqimi-musbat miqdor, chunki skalyar ko‘paytma $[\bar{\Pi}d\bar{A}] < 0$.



Umov-Poynting vektorining yo‘nalishi

$$-\oint_S \vec{\Pi} d\vec{S} = P_{menл} + P_{\mathcal{E}M}$$



«-> ishorasi Poynting vektorining oqimi har doim ijobiy bo‘lishini anglatadi. $d\vec{S}$ vektor \vec{S} yuzaning tashqi tomoniga yunaltirilgan.

Π vektor hajmnning ichki tomoniga yo‘naltirilgan. Бурчак $a > 90^\circ$ bo‘lganda, skalyar kattalik ($\Pi d\vec{S} = \vec{\Pi} d\vec{S} \cos(a)$) mazniy bo‘ladi.

Birlik vaqt davomida o‘tkazgichning birlik xajmida ajraladigan issiqlik miqdori (solishtirma issiqlik oqimi) quyidagicha aniqlanadi

τ -vaqt davomida to‘liq xajm V da ajraladigan issiqlik miqdori esa quyidagicha aniqlanadi






Joul-Lens

$$P_v = JE = \gamma E^2$$

$$Q = \tau \int_v \gamma E^2 dV$$

Jismning butun xajmi bo‘ylab γ va E ning qiymatlari o‘zgarmas bo‘lsa, ma’lum bo‘lgan, **Joul-Lens** qonuni ifodasiga ega bo‘lamiz

$$Q = \gamma E^2 V \tau = I^2 R \tau = U^2 \tau / R$$



Elektr qizitish uskunalari

(qarshilik yordamida qizitish, bilvosita qizitish)



ELEKTR ENERGIYASINI MEXANIK ENERGIYAGA AYLANTIRISH

Kvazistatsionar elektr f_e va magnit f_m maydonlari uchun mexanik kuchlar zichligi quyidagicha ifodalanadi

$$f_e = \rho_e E - \frac{1}{2} E^2 \operatorname{grad} \epsilon + \frac{1}{2} \operatorname{grad} \left(E^2 \frac{\partial \epsilon}{\partial \rho_q} \rho_q \right)$$

$$f_m = \begin{bmatrix} - & - \\ I & B \end{bmatrix} - \frac{1}{2} H^2 \operatorname{grad} \mu + \frac{1}{2} \operatorname{grad} \left(H^2 \frac{\partial \mu}{\partial \rho_{II}} \rho_{II} \right)$$

bunda

ρ_e -dielektrikdagi erkin zaryadlar zichligi;
 ρ_q va ρ_p -dielektrik va o'tkazgich moddalar zichligi

Elektr energiyani mexanik energiyaga aylantirish jismlarga elektromagnit maydonida ta'sir ko'rsatuvchi mexanik kuchlardan foydalanishga asoslangan. Ko'pincha bu kuchlar elektrodinamik yoki pondermotor (jismlarni xarakatga keltiruvchi) kuch deb ataladi. Jismlar elektromagnit maydonida xarakatga keltirilsa yoki o'lchamlari o'zgarsagina mexanik ish bajarilishi mumkin.

Nazorat savollari

- 1. O'tkazgichlar, yarim o'tkazgichlar; dielektrikni elektr qizitishning qanday fizik va miqdoriy umumiyliliklari bor va ularning qanday farqi bor?**
- 2. Umov-Poyting tenglamasining qanday termodinamik ma'nosi bor, elektrotermik jarayonlar va uskunalarni hisoblash uchun undan qanday foydalilanildi?**
- 3. Joul-Lens va Pelte issiqliklarining fizik tabiatи va miqdoriy ifodalanishida qanday farq bor?**
- 4. Elektromagnit maydonida qanday mexanik kuchlar yuzaga kelishi mumkin va ular nimaga bog'liq?**
- 5. Maydonning "elektr yurituvchi kuchi" va "pondermotor kuchi" nima?**
- 6. Tok (maydon)ning kimyoviy ta'siri nimalardan iborat, qanday fizik qonunlar bilan u miqdoriy jixatdan ifodalanadi?**

